

## **SOCIO-CULTURAL ANALYSIS OF REPRODUCTIVE BIOETHICS AND CONSEQUENTIAL MARRIAGE RELATIONS**

*Tagaymuratova Gulchehra Tuychiyevna*

*Lecturer, Department of Social Sciences, Gulistan State University*

[Gulchehratogaymuratova@gmail.com](mailto:Gulchehratogaymuratova@gmail.com) +998918071107

### **ABSTRACT**

This article analyzes the socio-cultural aspects of reproductive bioethics and consanguineous marriage. The study examines the impact of consanguineous marriage on reproductive health, genetic risks, and family relationships based on a bioethical approach. It also scientifically substantiates the impact of national traditions, cultural values, and bioethical views in modern society on this process. .At the same time, the impact of national traditions and cultural views on the issue of marriage is also analyzed.

### **Keywords:**

reproductive bioethics, consanguineous marriage, consanguineous, exogamy, endogamy, bioethics, genetic risk, health care, heredity, ethnic value, social stigma, marriage ethics, biosocial balance, reproductive health, genetic counseling.

### **REPRODUKTIV BIOETIKA VA QARINDOSHLAR NIKOHI MUNOSABATLARINING IJTIMOYIY-MADANIY TAHLILI**

**Tagaymuratova Gulchehra Tuychiyevna**

Guliston davlat universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

[Gulchehratogaymuratova@gmail.com](mailto:Gulchehratogaymuratova@gmail.com) +998918071107

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada reproduktiv bioetika va qarindoshlar nikoh munosabatlarining ijtimoiy-madaniy jihatları tahlil qilinadi. Tadqiqotda qarindoshlar nikohining reproduktiv salomatlikka, genetik xavflarga hamda oilaviy munosabatlarga ta'siri bioetik yondashuv asosida yoritiladi. Shuningdek, milliy an'analar, madaniy qadriyatlar

va zamonaviy jamiyatdagi bioetik qarashlarning ushbu jarayonga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. .Shu bilan birga milliy an'analar va madaniy qarashlarning nikoh masalasiga ta'siri ham tahlil qilingan.

*Kalit so'zlar: reproduktiv bioetika, qarindoshlar nikohi, konsangvin, ekzogamiya, endogamiya, bioetika, genetik xavf, sog'liqni saqlash, irsiylik, etnik qadriyat, ijtimoiy stigma, nikoh etikasi, bioijtimoiy muozanat, reproduktiv salomatlik, genetik konsalting.*

## **СОЦИОКУЛЬТУРНЫЙ АНАЛИЗ РЕПРОДУКТИВНОЙ БИОЭТИКИ И СВЯЗАННЫХ С НЕЙ БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ**

*Тагаймуратова Гульчехра Туйчиевна*

*Преподаватель кафедры социальных наук Гулистанского государственного университета [Gulchehratogaymuratova@gmail.com](mailto:Gulchehratogaymuratova@gmail.com) +998918071107*

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются социокультурные аспекты репродуктивной биоэтики и родственных браков. В исследовании рассматривается влияние родственных браков на репродуктивное здоровье, генетические риски и семейные отношения с точки зрения биоэтики. Также научно обосновано влияние национальных традиций, культурных ценностей и биоэтических взглядов современного общества на этот процесс. Одновременно анализируется влияние национальных традиций и культурных взглядов на вопрос брака.

**Ключевые слова:** репродуктивная биоэтика, родственный брак, родственные браки, экзогамия, эндогамия, биоэтика, генетический риск, здравоохранение, наследственность, этнические ценности, социальная стигма, этика брака, биосоциальный баланс, репродуктивное здоровье, генетическое консультирование.

### **KIRISH**

Zamonaviy jamiyatda reproduktiv bioetika va qarindoshlar nikohi masalasi dolzarb ijtimoiy-madaniy muammolardan biri hisoblanadi. Qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar ayrim jamiyatlarda milliy an'ana, iqtisodiy –ijtimoiy ma'nfaat, va oilaviy qadriyat sifatida saqlanib kelayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, u reproduktiv va genetik xavflar bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Tibbiyot va genetika sohasidagi tadqiqotlar bunday nikohlarning irsiy kasalliklar xavfini oshirishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining qariyb 20 foizi qarindoshlar nikohi keng taqalgan hududlarda yashaydi. Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Janubiy Osiyo mamlakatlarida bunday nikohlar jami nikohlarning 20-50 foizini tashkil qiladi [1]. Tadqiqotlarda qarindoshlar nikohi irsiy kasalliklar, tug'ma nuqsonlar hamda genetik xavflarning ortishiga sabab bo'lishi mumkinligi qayd etilgan [2].

O'zbekistonda ham qarindoshlar nikohi reproduktiv bioetika doirasidagi dolzarb masalalardan biri sifatida baholanmoqda. So'nggi genetik tadqiqotlarga ko'ra, tekshirilgan bolalarning 50 foizida irsiy mutatsiyalar aniqlangan, 86 foizida esa kamida bitta zararlangan gen mavjudligi qayd etilgan [3].

Davlatimizda sog'lom avlodni shakillantirish, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash hamda qarindoshlar nikohining salbiy oqibatlari haqida aholining xabardorligini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi ishlar inson salomatligini himoya qilish va oilaviy farovonlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Zero prezidentimiz takidlaganlaridek "Oila-jamiyatning asosiy bo'g'ini, sog'lom va mustahkam oila esa sog'lom avlodni tarbiyalashning eng muhim omilidir"[4].

Mazkur maqolada reproduktiv bioetika nuqtayi nazaridan qarindoshlar nikohining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari, uning jamiyat va oilaga ta'siri hamda bioetik me'yorlar asosidagi muammolari tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar tahlili:**

Reproduktiv bioetika va nikoh masalasining ijtimoiy-madaniy mohiyatini ilmiy tahlil qilish yaqin qarindoshlar nikohi amaliyotining antropologik, sotsiogenetik va madaniy omillariga teran nazar tashlash imkonini beradi. Bioetika zamonaviy sharoitda tibbiyot bilan cheklanib qolmaydigan, balki nikoh, oila qurish, reproduktiv tanlov, avlod salomatligi va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni izlashga qaratilgan o'ziga xos ilmiy-axloqiy paradigma sifatida namoyon bo'lmoqda. Ch.Bichem va J.Childressning "Principles of Biomedical Ethics" asarida bioetik qaror qabul qilishning to'rt ustuvor mezon – shaxsiy avtonomiyani hurmat qilish, zarar yetkazmaslik, foyda keltirish va adolatni ta'minlash – zamonaviy bioetik fikrning konseptual asosi sifatida ta'riflanadi [5]. Bu tamoyillar faqat shifokor-bemor munosabatlarida emas, balki nikoh, oila qurish va farzand ko'rishga oid qarorlarda ham ishlaydi; shu bois, qarindoshlar nikohini baholashda ularni chetlab o'tish imkoni yo'q.

Antropologik nuqtai nazardan nikoh instituti jamiyatning "madaniy arxitekturasi"ni shakllantiruvchi markaziy mexanizmlardan biri hisoblanadi. K. Levi-Stross nikohni qarindoshlik tizimini tiklovchi va jamiyat ichida resurslar almashinuvini tashkil etuvchi almashinuv shakli sifatida talqin qiladi; unga ko'ra, kim kimga turmushga chiqishi yoki uylanishi jamiyatdagi kuchlar muvozanati, qavmlar o'rtasidagi munosabatlar va mulkiy manfaatlar taqsimotini ifoda etadi [6]. Shu nuqtai nazardan qaralganda, yaqin qarindoshlar nikohi ayrim madaniy muhitlarda biologik tanlov emas, balki nasabni, mulkiy manfaatlarni va qavm ichki birdamligini muhofaza qiluvchi ijtimoiy institut sifatida "ratsionallashtirilgan" amaliyotdir. O'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman xalqlarining turli etnografik tavsiflarida "qizni o'z urug'idan, o'z qabilasidan uzatish", "nasabni toza saqlash", "qudalarning begona bo'lmasligi" kabi qarashlar aynan nikoh institutiga yuklatilgan madaniy va simvolik funksiyalarni ko'rsatadi.

### **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotda reproduktiv bioetika va qarindoshlar nikohining ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida bioetika, sotsiologiya, genetika va ijtimoiy ish fanlarining nazariy qarashlari tahlil qilindi.

Maqolada ilmiy bilishning analiz va sintez, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, xalqaro ilmiy tadqiqotlar hamda mahalliy olimlarning ilmiy manbalari asosida reproduktiv salomatlik va qarindoshlar nikohi bilan bog'liq ma'lumotlar o'rganildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qarindoshlar nikohi ayrim jamiyatlarda tarixiy-madaniy an'ana va oilaviy qadriyat sifatida saqlanib kelmoqda. Biroq bioetik nuqtai nazarda ayni shu amaliyotning eng o'tkir nuqtasi avlod salomatligi bilan bog'liq genetik xavflar masalasidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va bir qator klinik tadqiqotlarda yaqin qarindoshlar nikohida tug'ma nuqsonlar va irsiy kasalliklar xavfi odatiy nikohlarga nisbatan aniq oshishi ko'rsatilgan. Masalan, turli mamlakatlardan olingan ma'lumotlar tahlilida qarindoshlar nikohida tug'ma nuqsonlar miqdori 5-8% atrofida, qarindosh bo'lmagan nikohlarda esa 2-3% atrofida qayd etilgani ma'lum. Eron, Saudiya Arabistoni, Turkiya va boshqa mamlakatlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar ham shunga yaqin nisbatlarni ko'rsatadi; ayrim ishlarida malformatsiya holatlari qarindoshlar nikohida qarindosh bo'lmagan nikohlarga nisbatan qariyb uch barobar ko'p ekani qayd etilgan [7]. Shunday ekan, bioetik nuqtai nazardan zarar yetkazmaslik tamoyili qarindoshlar nikohini "axloqiy jihatdan betaraf" emas, balki xavf yuqori bo'lgan reproduktiv amaliyot sifatida ko'radi; bu esa genetik maslahat, skrining va xabardorlikni bioetik majburiyat sifatida qo'yadi.

Shu bilan birga, madaniy muhitdagi reproduktiv tushunchalar va qadriyatlar nikoh amaliyotiga shunchalik kuchli ta'sir ko'rsatadiki, ko'p hollarda shaxsiy avtonomiya tamoyili formal bo'lib qoladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlardan ma'lumki, turmush qurish qarorini qabul qilishda yoshlarning "men xohishim" emas, balki "ota-ona roziligi", "qarindosh-urug'ning maslaxati", "urf-odatga xilaf bo'lmaslik" kabi cheklovlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbek oilasining sotsiologiyasiga bag'ishlangan empirik ishlar tanlov erkinligini, ayniqsa qiz bolalar uchun, ancha cheklangan deb baholaydi: oilalarning katta qismida qizning so'zini "maslahat darajasida" eshitishsa-da, so'nggi qaror kattalar va qarindoshlar yig'iniga bog'liq bo'ladi [8]. Bu vaziyat bioetik adabiyotda ta'riflangan avtonomiya tamoyili – insonning o'z tanasi va o'z hayoti to'g'risida mustaqil qaror qabul qilish huquqi – real amaliyotda madaniy bosim, jinsiy ierarxiya va patriarxal me'yorlar orqali qanday qisqarib borayotganini yaqqol namoyon qiladi. Qarindoshlar nikohi masalasida "nasab pokligi", "qavm birligi", "oila sha'ni" tushunchalari alohida ideologik resurs sifatida ishlaydi. Antropolog R.Bart etnik chegaralarni saqlashning muhim mexanizmlaridan biri sifatida "etnik guruh ichidagi nikohni" tilga oladi; unga ko'ra, qavm ichida turmush qurish orqali nafaqat biologik, balki madaniy, til, diniy va simvolik chegaralar ham mustahkamlanadi [9]. Ayrim mahalliy sharoitlarda qarindosh bilan nikoh tuzish "begona qudalar bilan arz-da'voga borib o'tirmaslik", "mulkni o'z qavm doirasida saqlash", "qizni tanish muhitdan uzib yubormaslik" kabi amaliy mulohazalar bilan oqlanadi. Bunday holatda genetik xavflar madaniy foydalar soyasida qolib ketadi va bioetik baholashda "har bir oilada o'zicha vaznlashtirish" amalga oshadi.

Turkiyada o'tkazilgan milliy demografik so'rovlar mamlakatda qarindoshlar nikohining uzoq yillar davomida yuqori darajada saqlanib kelayotganini (o'rtacha 20–25% atrofida) tasdiqlaydi [10]. Biroq bir qator tadqiqotlarda ta'lim darajasi oshishi, shaharlashuv va ayollarning mehnat bozoridagi ishtiroki kuchayishi bilan qarindoshlar

nikohining ulushi pasayish tendensiyasiga ega ekanligi ko'rsatilgan. Bu holat madaniy me'yorlar mutlaq qadriyat emas, balki jamiyatdagi umumiy modernizatsiya jarayonlari ta'sirida o'zgarayotgan tizim ekanini ko'rsatadi. Eronning Tebriz shahrida nikoh oldi maslahat markazlari negizida o'tkazilgan tadqiqotlar esa qarindoshlar nikohiga moyil oilalarda ham genetik risklar haqida to'liq xabardorlik mavjud emasligini, shu bilan birga, maslahat jarayonida olingan ma'lumotlar ayrim juftliklarni qarorini qayta ko'rib chiqishga undayotganini ko'rsatadi [11].

Reproduktiv bioetika nuqtai nazaridan juda muhim yana bir masala – ma'lumot va qaror o'rtasidagi psixologik tuzilish, ya'ni axborotga ega bo'lish har doim ham "ratsional" qarorga olib bormasligi mumkinligidir. 2025 yilda Yevropada amalga oshirilgan bir tadqiqotda konsangvin nikohdagi homilador ayollarning katta qismi internet orqali skrining testlari haqida ma'lumot olgani, bir qismi esa ushbu testlar natijasiga qaramasdan bolani saqlab qolishni ma'naviy burch deb bilgani qayd etilgan. Bu misol madaniy va diniy e'tiqodlar, oilaviy bosim va shaxsiy qadriyatlar genetik xatarlar haqidagi axborot bilan qay darajada murakkab o'zaro ta'sirga kirishib, real qaror qabul qilish jarayonini shakllantirishini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida reproduktiv bioetika va nikoh masalasini tahlil qilishda bir vaqtning o'zida kamida to'rtta kontekstni hisobga olish zarur: tarixiy-madaniy meros, diniy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va sog'liqni saqlash tizimi imkoniyatlari. Bir tomondan, mahalliy madaniyatda oila va nikoh jamiyatning eng muhim "axloqiy instituti" sifatida ideallashtiriladi; ikkinchi tomondan esa, genetik xavflar, bolalar salomatligi, nogironlik holatlarining ko'payishi oila va jamiyat uchun katta ijtimoiy yuk keltirishi mumkin. Shu bois, bioetik tahlilda nikohni faqat "shaxsiy ish" emas, balki jamoat salomatligi va avlod salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy institut sifatida ko'rish zarur. UNFPA va boshqa xalqaro tashkilotlar O'zbekistonda oila rejalashtirish, reproduktiv salomatlik va jinsiy tarbiya masalalari bo'yicha qator loyihalarni amalga

oshirib, “zararli amaliyotlar” – bola nikohi, majburiy turmush, ayollar tana avtonomiyasini cheklovchi qarorlarni qisqartirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqmoqda [12].

Reproduktiv bioetika nuqtai nazaridan qarindoshlar nikohini baholashda shunday umumiy qonuniyat ko‘rinadi: qanchalik madaniy an‘analar kuchli bo‘lsa, shunchalik bioetik tamoyillar “maslahat xarakterida” qolib ketishi mumkin; aksincha, genetik xabardorlik, tibbiy xizmatlar sifatining oshishi, ta‘lim va shaharlashuv darajasining yuksalishi bioetik talablar bilan madaniy an‘analar o‘rtasidagi muvozanatni qayta ko‘rib chiqishga majbur etadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston uchun optimal yo‘l – mahalliy madaniy merosni keskin inkor etmasdan, uning ichida avlod salomatligini ustuvor qiymat sifatida qayta talqin qilish, oilalarni ayblash emas, balki xabardor va mas‘ul qaror qabul qilishga olib boruvchi bioetik madaniyatni shakllantirishdir. Bu yo‘lda genetik maslahat markazlari, oilaviy shifokorlar, nikoh oldi tibbiy ko‘rik tizimi, mahalla instituti, imom-xatiblar va ta‘lim muassasalarining hamkorlikdagi ishlari katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu tariqa, reproduktiv bioetika va nikoh masalasining ijtimoiy–madaniy tahlili yaqin qarindoshlar nikohini “oddiy urf-odat” yoki “shaxsiy tanlov” sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bu amaliyot madaniy identichlik, qavmchilik munosabatlari, gender ierarxiyasi, iqtisodiy manfaatlar, sog‘liq siyosatlari va bioetik talablar tutashgan murakkab maydonda shakllanadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, reproduktiv bioetika va qarindoshlar nikohi munosabatlari ijtimoiy-madaniy, tibbiy hamda axloqiy jihatdan bir-biriga o‘zaro bo‘g‘liq murakkab tizimni tashkil etadi. Qarindoshlar nikohi ayrim hududlarda tarixiy an‘ana va ishonch, ijtimoiy barqarorlik omili sifatida saqlanib kelayotgan bo‘lsa-da, Zamonaviy genetika va bioetika yondashuvlari uning irsiy kasalliklar va reproduktiv

xavflarini oshirishi mumkinligini tasdiqlaydi. Shu boisdan, reproduktiv bioetika tamoyillarini amaliyotga tadbiiq etish, aholining bioetik madaniyatini oshirish, nikohdan oldingi tibbiy-genetik skriningni kuchaytirish jamiyatni sog'lom avlod bilan ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, milliy an'analar va zamonaviy tibbiy talablar o'rtasida muvozanatni ta'minlash oila va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

Nikohdan oldingi tibbiy va genetik ko'rik tizimini yanada takomillashtirish;  
Aholining reproduktiv salomatlik va bioetika bo'yicha tibbiy madaniyatini oshirish;  
Talim muassasalari, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali qarindoshlar nikohining muammolari, genetik xavflari, ilmiy asoslangan faktlar asosida targ'ibot va profilaktika ishlarini kuchaytirish

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Bittles A.H. *Consanguinity in Context*. Cambridge University Press, 2012.
2. <sup>1</sup> World Health Organization (WHO). *Community Genetics Services Report*, Geneva, 2010.
3. <sup>1</sup> "Every Second Child in Uzbekistan Found to Have a Genetic Mutation". Asab.uz, 2025
4. <sup>1</sup> [https://president.uz/uz?utm\\_source=chatgpt.com](https://president.uz/uz?utm_source=chatgpt.com)
5. <sup>1</sup>Varkey B. Principles of Clinical Ethics and Their Application to Practice. 2021;30(1):17-28. doi: 10.1159/000509119. Epub 2020 Jun 4.
6. <sup>1</sup> Alan Holland Bittle. Consanguineous marriages and congenital anomalies. July 2013. The Lancet 382(9901) DOI:10.1016/S0140-6736(13)61503-2
7. Абдулла М. Хайят. Кро́вный брак и его связь с генетическими заболеваниями в Саудовской Аравии: обзор. Кюрей. 9 февраля 2024 года; 16(2):e53888. doi: 10.7759/cureus.53888

8. <sup>1</sup> Отчёт о состоянии мирового населения 2020 года.

<https://uzbekistan.unfpa.org/>

9. [Alan Holland Bittle](#). Consanguineous marriages and congenital anomalies. July 2013. *The Lancet* 382(9901) DOI: [10.1016/S0140-6736\(13\)61503-2](https://doi.org/10.1016/S0140-6736(13)61503-2)

10. <sup>1</sup> [Prevalence and sociodemographic correlates of consanguineous marriages in Turkey - PubMed](#)

11. <sup>1</sup> <https://www.ejgm.co.uk/>

12. <https://www.unfpa.org/data/transparency-portal/unfpa-uzbekistan>

13. Tuychiyevna, T. G. SOCIOLOGICAL AND BIOETHICAL ANALYSIS OF MARRIAGE BETWEEN CLOSE RELATIVES. *WORKING ORGAN PARAMETERS OF THE DISC CULTIVATOR THROUGH EXPERIMENTAL MATHEMATICAL PLANNING..... 10 MAMASHAEV MUZAFFAR ABDUMALIKOVICH//VIBRATION PATTERNS OF THE MESH SURFACE OF A RICE SORTING MACHINE IN RELATION TO THE STIFFNESS COEFFICIENTS OF ITS ELASTIC*, 80.

14. TAGAYMURATOVA, G. (2025). QARINDOSHLAR O 'RTASIDAGI NIKOHGA SOTSIOLOGIK VA BIOETIK YONDASHUVLAR. «*ACTA NUUZ*», 1(11), 162-165.